

Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 958 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 8 924 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 9 815,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 298,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 106,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7 255,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 100,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 261,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 122,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 728 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 45 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 683 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2026- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 14 598,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 125,4 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 12 657,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 135,4 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 86,7 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Chinoz (140,2) tumani hamda Nurafshon (143,7) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 2 937 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 925 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 348,7 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 69,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga ma'sul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Ijrochi: M.Mirzokirov Tel: (+99871)203-45-00 (4541)	Manzil: Toshkent shahar Mirobod tumani Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2- uy
--	--	---